

NAMUNAVIY DARS ISHLANMA

JAMLANMASI

QAYUMOVA MADINA RAVSHANJON QIZI

TO‘PLAM TARKIBI

ONA TILI FANIDAN
NAMUNAVIY DARS
ISHLANMALAR.....

O‘ZBEK TILI FANIDAN
NAMUNAVIY DARS
ISHLANMALAR.....

ADABIYOT FANIDAN
NAMUNAVIY DARS
ISHLANMALAR.....

Zamonaviy
o‘qituvchida
bo‘lishi lozim
bo‘lgan har qanday
sifatlarni birga
rivojlantiramiz

MAVZU: ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASI TAHLILI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o’quvchilarga Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasini tahlil qilib, tushunishni o’rgatish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarda mardlik, do’stlik, haqiqatgo’ylik, odamiylik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish;

c) rivojlantiruvchi maqsad: o’quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o’rgatish.

Dars jarayoni

1. Tashkiliy qism	4 minut
2. O’tilgan mavzuni takrorlash(mustahkamlash)	12 minut
3. Yangi mavzuni tushuntirish	10 minut
4. Yangi mavzuni mustahkamlash	14 minut
5. O’quvchilarni baholash	3 minut
6. Uyga vazifa	2 minut

Tashkiliy qism:

- A) sinf xonasini tozaligiga e’ribor berish;
- B) o’quvchilar bilan salomlashish;
- C) o’quvchilarning darsga tayyorgarligini teshirish;
- D) o’quvchilarni darsga jalb qilish va davomatni anilash;
- E) o’quvchilarga o’tilgan mavzular yuzasidan savollar berish.

Dars uslubi: noan’anaviy

Dars jihozi: Darslik, kompyuter, tarqatma materiallar, ko’rgazmali qurollar...

O‘tilgan mavzuni takrorlash

1-topshiriq. Abdulla Qahhor hayoti va ijodi haqida 10 ta muhim ma’lumot yozing.

1. _____
2. _____
3. _____

4. _____
5. _____

Abdulla
Qahhor

6. _____
7. _____

8. _____
9. _____
10. _____

2-topshiriq. Quydagi savollarga javob bering.

1. Erilgan she’riy parcha muallifini yozing.

Men bir qora kunda tug‘ildim,
Tug‘ildim-u, shu on bo‘g‘ildim,

2. Temirchining o‘g‘li Sarimsoq tarixi Abdulla Qahhorning qaysi asariga kiritilgan?

3. Abdulla Qahhor bolaligi to'g'risida batafsil hikoya qilingan avtobiografik asar nomini yozing.

4. Yozuvchi qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?

5. Abdulla Qahhorning dastlabki qissasi qachon va qanday nom bilan nashr etilgan?

Asarlari	Ular yozilgan yillar
«Sarob»	
«O'tmishdan ertaklar»	
«Qishloq hukm ostida»	
«Qo'shchinor chiroqlari»	
«Shohi so'zana»	
«Og'riq tishlar»	
«Tobutdan tovush»	


«Ayajonlarim»

«Hikoyalar» to'plami

«Bemor»

3-topshiriq. Quyidagi jadvalda Abdulla Qahhorning asarlari nomi yozilgan. Siz har bir asar yozilgan yillarni asar nomi to'g'risiga yozing.

4-topshiriq. Abdulla Qahhor asararini quyidagi janrlarga moslab yozing.



Yangi mavzu bayoni

Abdulla Qahhorning anchagina hazin bu hikoyasi hayot haqiqatini aks ettirganini guvohi bo'ldingiz. Har qalay, hayotdan erta ko'z yumgan onaga, Sotiboldiga murg'ak qizga yuragingiz achigan bo'lsa kerak. Bu voqea o'tgan XX asrning dastlabki yillarida

bo'lgan. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o'lkamizning hayoti parokanda holga keltirilga bu davrda aholi nihoyatda qashshoq holda hayot kechirar edi. Dehqon va hunarmandlar qilgan mehnati evaziga juda kam haq olar edi. Oila boqish o'ta qiyin edi. Shu tufayli xalq orasida turli kasalliklar ko'payib, oddiy betoblik ortidan bevaqt hayotdan ko'z yumish holatlari ko'paygan edi.

“Bemor” hikoyasida har bir qahramon o'ziga xos tasvirlangan, har birining yuragidagi iztiroblari alohida badiiy tasvirlangan. Asarda qahramon o'ylanadi, gapiradi, kuladi, iztirob chekadi. Qahramonning ruhiy holatlarini ifodalash uchun adib dialoglardan, turli holatlardan, so'zlashuv, ya'ni umumxalq tilidan o'rinli foydalanadi.

Abdulla Qahhor hikoyasida bemor faqat Sotiboldining xotini emas, bu-tun jamiyat bemor- xasta, najotga zor, tuzalishga muhtoj !

Xuddi shu haqiqatni teran anglaganlari tufayli ham Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon singari bizning ko'plab bobolarimiz el yurt dardini o'ylab, oxiroqibat mamlakatni istiqloлга olib chiqish uchun kurashib shu yo'lda qurbon qildilar. Biz ularning nomlarini hamisha hurmat bilan tilga olishimiz kerak.

Mavzuni mustahkamlash

O'quvchilarga matnni tushunib tahlil qilishlari uchun quyidagi PISA testlari taqdim qilinadi.

Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasi

1. FSMU metodi orqali Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasining g'oyasi haqidagi fikrlar bayon qilinadi.

F. Hikoyaning yozuvchi yashagan davr bilan aloqasi bormi? Shu haqda fikringizni bildiring.

S. Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M. Ko'rsatilgan sababni isbotlovchi dalillar keltiring.

U. Fikrlaringizni umumlashtiring.

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Matnni talqin qilish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:

Yozuvchining “Bemor” hikoyasi jamiyat va unda yashayotgan insonlarning ma'naviy xastaligi, ruhan ojizligini tarannum etgan. Har qanday ijodkor asar yaratar ekan, albatta, u yashagan davr shu ijod namunasida o'z jilosini ko'rsatadi. Xususan, biz yuqorida tilga olgan A.Qahorning “Bemor” hikoyasidir. Asar yozuvchi hayotining, u yashagan davrning bir namunasi xolos. Bunga yozuvchining “O'tmishdan ertaklar” asari oqali ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Zamon shunday

ediki, unda to'griso'zlik, kambag'allik eng katta ayb edi, shuning uchun ham hikoyaga “Osmon yiroq, yer qattiq” epigrafi tanlangan.

Javob qisman qabul qilinadi:


A.Qahhor ushbu asarida kambag'al bir insonning o'z xotinini davolatish uchun qilgan sa'y-harakatlari va samarasiz natijani ko'rsatib bergan. Asarda boy inson va kambag'al bir bechorani o'zaro qiyoslash orqali shu zamanni, undagi insonlarning turli

nayrangbiizliklarini namoyish qilgan. Ayolni davolatish uchun qilingan qon chiqarish-u boshqalarni jamiyat hayotidagi eng katta nuqson sifatida achchiq kulgi ostiga olgan

Javob qabul qilinmaydi:

Hikoya bir jamiyatda yashayotgan bemor ayolning talqinidir. Unda eri uni davolatish uchun qilgan ishlari, hatto kichkina qizini erta tongda turib, duo qilishlari ko'rsatiladi. Asarda ayol xasta, afsuski, tuzalas dardga yo'liqqan bu ayol hech kimdan shifo topa olmaydi va hikoya so'ngida u olmadan o'tadi. Yozuvchi aynan asarida ayolning bemorligini, erining unga sadoqatini yozgan.

2. Sotiboldi Xotinini davolatish uchun nimalar qildi? Ketma-ketlikda yozing.




BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumotni aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:



Javob qabul qilinmaydi: boshqa javoblar qabul qilinmaydi.

3. Quyida berilgan jadvalga hikoya qahramonlari haqida fikringizni yozing.

Sotiboldi	Sotiboldining qizi	Abdug'aniboy

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: ma'lumotni aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:

Sotiboldi	Sotiboldining qizi	Abdug'aniboy

Sotiboldi hayot o'z	Hikoyada uch	Keyingi qahramon
<p>charxpalagida gir aylantirib, sinovli kularni boshiga solgan bir obraz edi. U shunchaki qahramon emasdi, balki yozuvchining maqsadini o'zida aks ettirgan edi. A. Qahhor qahramonni shunchaki olib kirmaydi asariga, ular asar bilan birga yashaydi, ijodkor ular bilan birga nafas oladi. Sotiboldi shu nafasning namoyishchisi edi. U chin ma'nodagi vafodor yor va sadoqat timsolini yaratdi. Ayoli uchun imkoniyati yetgan ishlarni qildi. Sotiboldi va uning xotini zamon sho'xliklarini qurboni bo'lgan "bemor" jamiyatning vakillaridir</p>	<p>yoshli qiz umid chirog'i sifatidagi obraz edi. U jamiyat nopoklilaridan holi bo'lgan birdan-bir qahramondir. Yozuvchi qizchani inson uchun so'nggi umid sifatida asarga kiritgan, ya'ni odamzot hamma narsasidan ayrilsa ham, umid qilishdan to'xtamasligini ko'rsatib bergan.</p>	<p>Abdug'aniboy bo'lib, u jamiyatning boy shaxslari qiyofasini shakllantirgan va ularning shaxsiyatiga oid bo'lgan jihatlarini ochib bergan. Ushbu qahramon imkoni bo'la turib, imkonsiz insonga yordam berishni istamagan obrazdir. Uning bu qiyofasi yozuvchi yashagan davrdagi ba'zi o'ziga to'q insonlarning nokasliklarini ko'rsatishga harakat qilgan.</p>

Javob qisman qabul qilinadi:

Sotiboldi	Sotiboldining qizi	Abdug'aniboy
-----------	--------------------	--------------

<p>Sotiboldi obrazi hikoyada katta ahamiyatga ega bo'lib, hikoyaga o'oyasini ko'rsatib beradi. Sotiboldi o'z oilasini asrab qolish, xotinidan ayrilmaslik, qizini yetim qilmaslik uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qiladi, Xatto xotinining yonida qolish uchun uyda savat to'qib pul topishga harakat qiladi. U o'sha davrdagi o'zi kabi kambag'al insonlar hayotini yaqqol ko'rsatib bergan obrazdir.</p>	<p>Sotiboldining qizi hikoyda so'nggi umid farishtasiday tasvirlangan.</p>	<p>Hikoya yaratilgan davrdagi ziqna boylarni, o'zidan boshqani o'ylamaydigan amaldorlarni o'zida aks ettiruvchi obrazdir.</p>
---	--	---

Javob qabul qilinmaydi:

Sotiboldi	Sotiboldining qizi	Abdug'aniboy
<p>Oddiy kambag'al inson va u o'z oilasi uchun kurashmoqda.</p>	<p>Onasini juda yaxshi ko'radi.</p>	<p>Sotiboldining xo'jayini.</p>

4. Qaysi voqeadan keyin bemorning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi?
- A. Chilyosin qildirishgandan keyin
 - B. Tabibga ko'rsatishgandan keyin
 - C. Tolning xipchini bilan savalshgandan keyin
 - D. Baxshi o'qigandan keyin

BAHOLASH MEZONI



Faoliyat: Fikrlash va baholash.




Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Ta'limiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: B. Tabibga ko'rsatishgandan keyin

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

5. Quyida berilgan rebuslarning javobini toping. Ularda "Bemor" hikoyasida uchraydigan o'zbek xalq maqollari yashiringan.



BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumotni aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:

Ingichka uziladi, yo'g'on cho'ziladi.

Osmon yiroq, yer qattiq.

Javob qabul qilinmaydi: boshqa javoblar qabul qilinmaydi.

6. Quyida berilgan rasmlarni hikoyaga qanday aloqasi bor ekanligini izohlab yozing.





•

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: ma'lumotni aniqlash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:



Sotiboldi uyda, xotini va qizining oldida qolib
ishlaydi. Savat to'qib sotadi



Shifoxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga
25 so'mlik oul kelar edi



Sotiboldining xo'jayini Abdug'aniboy Chigit
po'choq bilan savdo qilardi



Sotiboldining xo'jayini Abdug'aniboy kunjara
bilan savdo qilardi



Sotiboldi xotinini davolatish uchun sovuq
so'yib qon chiqaradi

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar qabul qilinmaydi.

7. Hikoyada bemor aslida kim? Shu masalada yaqin sinfdoshingiz bilan suhbatlashing.

Fikrimcha,
jamiyat bemor

Sotiboldining xotini
bemor

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Aks ettirish va baholash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Shaxsiy.

Javob to'liq qabul qilinadi:

Asar bir ayolning betoblighi asnosida jamiyatning xastaligini ko'rsatib bergan, jamiyat ham aslida bir necha insonlar jamoasidir. Shu insonlarning o'zi nafas olayotgan olamini burkayotgani, o'zidan nisbatan zaif insonlarning oddiy bir kasallik oldida ham ojizligini ko'rsatib bergan. Ayolning bemorligi hikoya

mazmunini ochishda bir vosita xolos, maqsad zamon tengsizliklarini, jamiyat shafqatsizligini yortib bergan.

Javob qisman qabul qilinadi:

Hikoyada Sotiboldining xotini misolida butun jamiyatning bemorligi tasvirlangan

Javob qabul qilinmaydi:

Sotiboldining xotini betob

8. Qaysi voqeadan keyin bemor ancha tuzalgandek bo'ladi?

- A. Baxshiga o'qitgandan keyin
- B. Chilyosindan keyin
- C. Shifoxonaga borishgandan keyin
- D. Tovuq so'yib, qon chiqargandan keyin

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Fikrlash va baholash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Ta'limiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: B. Chilyosindan keyin

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

9. Qizcha duo qilishi kerakligini kim aytadi?

- A. Qo'shni kampir
- B. Baxshi
- C. Abdug'aniboy
- D. Sotiboldining onasi

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Fikrlash va baholash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Ta'limiy.

Javob to'liq qabul qilinadi: A. Qo'shni kampir

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

O'quvchilarni baholash

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa

Bemor hikoyasi tahliliga asoslanib esse yozish

MAVZU: TASVIRIY IFODALAR. MUOMALA ODOBI

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga tasviriy ifodalar haqida yangi bilim berish;
- b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni nutq madaniyati, muomala odobi, turli vaziyatlarda to'g'ri muomala qilish va vaziyatdan chiqish, xatolarni tan olish va to'g'rilashga o'rgatish;
- c) **rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarning eslab qolish (xotira) qobiliyatini rivojlantirish, savodxonlikni o'stirish.

Tayanch kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya:

- o'rganilgan ifoda vositalari asosida o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

- mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallash .

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

- doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zining burchini bilish, unga rioya qilish.

Dars jarayoni

1.Tashkiliy qism	4 minut
2.O‘tilgan mavzuni takrorlash(mustahkamlash)	12 minut
3.Yangi mavzuni tushuntirish	10 minut
4.Yangi mavzuni mustahkamlash	14 minut
5.O‘quvchilarni baholash	3 minut
6. Uyga vazifa	2 minut

Tashkiliy qism:

- A) sinf xonasini tozaligiga e‘tibor berish;
- B) o‘quvchilar bilan salomlashish;
- C) o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini teshirish;
- D) o‘quvchilarni darsga jalb qilish va davomatni anilash;
- E) o‘quvchilarga o‘tilgan mavzular yuzasidan savollar berish.

Darsning jihozi: darslik, jadval va chizmalar.

Dars usuli: an’anaviy, noan’anaviy (tagiga chizilsin)

O‘tilgan mavzuni takrorlash

O‘tilgan darsning grammatik mavzusi omonimlar edi. Ushbu mavzuni o‘quvchilar bilan mustahkamlab, eslab olamiz. Proyektorda slayd ko‘rsatiladi. Slaydda omonim so‘zlarning tasvirlari berilgan. O‘quvchilar rasmlarga qarab omonim so‘zlarni aniqlashlari lozim.

Yangi mavzu bayoni

Yangi mavzu avvaldan tayyorlangan slayd yordamida o‘quvchilarga tushuntiriladi.

O‘qituvchi grammatik mavzu yuzasidan, ya’ni “Tasviriy ifodalar” mavzusiga oid ma’lumotlarni o‘quvchilarga tushuntiradi.

Tasviriy ifoda – narsalar nomining bo‘yoqdor muqobili bo‘lgan birikma. U uslubiy chegaralangan, ko‘proq publitsistikaga xos:

1. Yoshlarning aql gimnastikasiga qiziqishlari ortib bormoqda.
2. Oltin qanot qushlar uchsini.

Tasviriy ifoda tushunchani bildirishi bilan so‘zga teng, lekin bo‘yoqdorligi bilan farqlanadi.

Tasviriy ifodaga ham omonimlik xos.



G‘azal
mulking
sultoni



Alisher
Navoiy

Tasviriy ifoda



So‘z ma‘nosining kengayishi va ko‘chgan holda qo‘llanishi tilning, ayniqsa, lug‘at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biri. So‘zni ko‘chma ma‘noda qo‘llash – lug‘at boyligini ko‘rsatuvchi, uslub ravonligi, ifoda mazmundorligini ta‘minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vosita. Tasviriy ifoda ko‘proq ot va sifat turkumiga mansub. Ba‘zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (aql gimnastikasi – matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo‘llanishi (zangori ekran, oynayi jahon – televizor) mumkin. Demak, tasviriy ifodaga omonimlik ham xos.

Tasviriy ifodalarda omonimlik

O‘zbek tili darslikgidagi 1-topshiriq va 2-topshiriqdagi savol-javoblar uyga vazifa sifatida belgilanadi.

1 va 2-mashqlar bajarishda yana taqdimotdan foydalanamiz. proyektorda taqdimot ko'rsatiladi. taqdimotda tasvirlar berilgan. O'quvchilar taqdimotda berilgan rasmlar bilan bog'liq tasviriy ifodalarni aniqlashlari lozim. O'qituvchi namuna sifatida 1-rasm bilan bog'liq tasviriy ifodani tushuntirib beradi.



YECHIM: 



G'AZAL
MULKINING
SULTONI



ALISHER
NAVOIY

3-topshiriq. O'qing, tahlil qiling va munosabat bildiring.

Darslikda "Muvaffaqiyat qarshisidagi to'siqlar" mavzusida matn berilgan. Ushbu matnda muvaffaqiyat qozonishdagi bir qancha to'siqlar keltirib o'tilgan. Matn

o‘qib, tushuntirilgandan so‘ng, berilgan tushunchalar kartochkalarga yozib chiqiladi. O‘quvchilar 1 tadan kartochkani tanlab oladilar va undagi yozilgan so‘zga oid vaziyat yaratib beradilar. Obrazli tarzda. O‘qituvchi namuna sifatida 1 ta kartochkani tanlaydi va unga mos vaziyat yaratib beradi.

Kartochkalarda beriladigan so‘zlar:

Qo‘rqoqlik, muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatish, kibr, oqimga qarshi suzish, aybdor izlash, qiziqqonlik, hasrat qilish, ishonuvchanlik, hadeb uzr so‘rash.

Namuna:



4-topshiriq. Matnni o‘qing va munosabat bildiring.

Darslikda “Tuya va bo‘taloqning suhbatlari” sarlavhali ibratli hikoyat berilgan. Hikoyat ifodali o‘qiladi va mazmuni haqida bahs-munozara qilinadi.


Mustahkamlash uchun qo‘shimcha topshiriq

O‘quvchilarga kartochkalar taqdim qilinadi. Ular juft-juft bo‘lib kartochkalardagi so‘zlarga mos 2 xil vaziyatlar yaratishadi. Muomala odobiga rioya qilinmagan va rioya qilingan vaziyat yaratadilar.

Kartochkalarda beriladigan so‘zlar:

Turtmoq, haqoratlamoq, chiqindi, so‘ramoq, tushuntirmoq, yiqilmoq, orqasidan gapirmoq, uyqudan uyg‘otmoq

Namuna:



Misol uchun, kartochkada turtmoq soʻzi berilgan. Siz quyidagicha vaziyat yaratishingiz mumkin. Koʻchada yoki istirohat bogʻidasiz. Kimdir sizni behosdan turtib yubordi. shu vaziyatga mos ikki xil nutq yarating

1-nutq.

- Koʻzing bormi seni. Yoʻlga qarab yursang oʻlasanmi?
- Yoʻlni qoq oʻrtasida nima bor. Chekkadan yursang boʻlmaydimi?

2-nutq.

- Ming bor uzr koʻrmay qolibman. lat yemadingizmi?
- Yoʻq-yoʻq hammasi joyida. Koʻcha-koʻyda ehtiyot boʻlib yuring.

Oʻquvchilarni baholash

Darsda faol ishtirok etgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi. Faol ishtirok etgan oʻquvchilarga ragʻbat tariqasida sovgʻalar beriladi.

Uyga vazifa



“Xatolarimni tan olaman” mazvusida fikringizni yozma bayon qiling.

MAVZU: TOVUSH ALMASHINISHI

Darsning maqsadi:

- a) ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga fonetik hodisalar, og'zaki va yozma nutqning adabiy me'yorlari, tovush almashinishi hodisasi haqida tushuncha berish orqali tinglab tushunish va yozish kompetensiyasini singdirish;
- b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ota-bobolarimizga hurmat ruhini singdirish va tibbiy madaniyatni shakllantirish;
- c) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda talaffuz va imloda tovush o'zgarishi hodisalaridan o'rinli foydalana olish;

Tayanch kompetensiyalar:

Kommunikativ kompetensiya:

– o'rganilgan ifoda vositalari asosida o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– mediamanbalar (radio, televizor, internet va boshqalar)dan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallash .

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

–sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish.

Dars jarayoni

1.Tashkiliy qism	4 minut
2.O‘tilgan mavzuni takrorlash(mustahkamlash)	12 minut
3.Yangi mavzuni tushuntirish	10 minut
4.Yangi mavzuni mustahkamlash	14 minut
5.O‘quvchilarni baholash	3 minut
6. Uyga vazifa	2 minut

Tashkiliy qism:

- A) sinf xonasini tozaligiga e‘ribor berish;
- B) o‘quvchilar bilan salomlashish;
- C) o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini teshirish;
- D) o‘quvchilarni darsga jalb qilish va davomatni anilash;
- E) o‘quvchilarga o‘tilgan mavzular yuzasidan savollar berish.

Darsning jihozi: darslik, jadval va chizmalar.

Dars usuli: an’anaviy, noan’anaviy (tagiga chizilsin)

O‘tilgan mavzuni takrorlash

1-topshiriq. “*Sherigini top*”. Tilshunoslik bo‘limlari yuzasidan bilimingizni sinab ko‘ring.

Tilshunoslik bo‘limlari		Ular o‘rganadigan masalalar
Grafika		Gap va uning turlari

Morfologiya	Tilning tovush tizimi
Leksikologiya	Nutq uslublari
Fonetika	Lug‘at va uning turlari
Leksikografiya	Harflar tizimi
Sintaksis	So‘zning atash ma’nosi
Orfoepiya	Tinish belgilari
Uslubiyat	So‘z turkumlari
Morfemika	To‘g‘ri talaffuz me‘yorlari
Punktuatsiya	So‘z tarkibi

2-topshiriq. Berilgan rasmlardan foydalanib mehnatkash va dangasa bolalarga xos xususiyatlarni yozing. Mehnatkash bolalarga xos xususiyatlarni ifodalovchi so‘zlardagi unli tovushlarni va dangasa bolalarga xos xususiyatlarni ifodalovchi so‘zlardagi undosh tovushlarni ajratib tahlil qiling.



3-topshiriq. Tez aytishlarni mashq qilib ko‘ring. So‘zlar tarkibida kelayotgan bir xil undosh tovushlarni belgilab, ularning qanday vazifa bajarayotganini aniqlang.

1. Zanjir, sarjin, anjir.
2. Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft cho‘p ko‘pmi?
3. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?
4. Bir ayvoncha, ayvoncha labida hovuzcha, hovuzcha labida hovoncha, hovoncha ichida bir hovuchcha dovuchcha bor.
5. Elchin bilan Yo‘lchin temiryo‘lchi, Temiryo‘lchilarga yetib ko‘r-chi?!
6. Qutlug‘ quritgan urug‘, Ulug‘ quritgan urug‘dan quruqroq.
7. Bashar bilan Yashar yashil yarimsharda yashashar.

Yangi mavzu bayoni

Topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping. ajratilgan so‘zlarning qaysi birida tovush almashinishi xodisasi sodir bo‘lgan. Ular ishtirok etgan gaplarni yozing.

1. Osti marmar, usti marmar
Ichida bir kelin o‘ynar.
2. Temir qo‘rg‘on ichida qizil toychoq o‘ynaydi.
3. Boshi taroq, dumi o‘roq.
4. Bech aka-uka quduqqa tosh otar.
5. Barmog‘i bor, joni yo‘q,
Tomiri bor, qoni yo‘q.
6. Yetti tuynukli gumbaz,
Shundan xabar ber, O‘lmas

Yechim:

1. O'ynar (o'yin otiga –a fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilib, asosda gi i tovushi tushgan)
2. O'ynaydi (o'yin otiga –a fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilib, asosda gi i tovushi tushgan)
3. Taroq (tara fe'liga –q ot yasovchi qo'shimchasi qo'shilib, asosdagi a tovushi o tovushiga almashgan)
4. Quduqqa (Asos q tovushi bilan tugagani sababli –ga jo'nalish kelishigi –qa shaklida qo'shilgan)
5. Barmog'i (barmoq so'zi q tovushi bilan tugagani sababli III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi –i qo'shilib, asosdagi q tovushi g' tovushiga almashgan)
6. Shundan (shu ko'rsatish olmoshiga chiqish kelishigining –dan shakli qo'shilib, n tovushi ortgan)

89-mashq. *Hushyorligim, bulog'i, tilakka, qo'g'irchoqqa, sinov, qaynoq, sovuq, anglamoq, atamoq* so'zlarida qo'shimcha qo'shilganda qaysi tovush qaysi tovushga almashganini ayting.

Yechim:

1. Hushyorligim-hushyorlik+im (Ishaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi)
2. Bulog'i- buloq+i (III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi)
3. Tilakka-tilak+ -ga(-ka) (jo'nalish kelishigi qo'shimchasi)
4. Qo'g'irchoqqa- qo'girchoq+ -ga (-qa) (jo'nalish kelishigi qo'shimchasi)
5. Sinov-sina+ -v (harakat nomi qo'shimchasi)
6. Qaynoq-qayna+q (sifat yasovchi qo'shimcha)
7. Sovuq-sovi+q (sifat yasovchi qo'shimcha)
8. Anglamoq ong+la (fe'l yasovchi qo'shimcha) Atamoq-ot+a (fe'l yasovchi qo'shimcha)

90-mashq. Uchta, pochta, yigitcha, yozsin, ketdi, o‘n besh so‘zlarini o‘qing.qanda o‘zgarish bo‘layotganiga e‘tibor bering.

Yechim:

Uchta-uchta, pochta- po’shta, yigitcha- yigichcha, yozsin-yossin, ketdi- ketti, o‘n besh-ombesh

Bilib oling!





Asosga qo‘shimcha qo‘shilishida asos yoki qo‘shimcha tarkibida tovush almashishi xodisasi sodir bo‘lishi mumkin.

Asos qismida: o‘qi+v=o‘quv,

Qo‘shimcha qismda: chiq+qach

Mavzu yuzasidan qo‘shimcha topshiriqlar bilan ishlash

2-topshiriq. “Bozoringizni bersin” usuli orqali o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi. Har bir maxsulot ustiga raqamlar yopishtiriladi. Bu maxsulotlar ortidagi savollarga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi shuncha ballarga ega bo‘ladi degani.



1. Tovush almashinishiga ta'rif bering.
2. Qo'shimcha qismida tovush almashishiga misol ayting.
3. Asos qismda tovush almashishiga misol ayting.
4. Saylov so'zida qanday tovush almashgan?
5. Qanday qo'shimchalar ta'sirida tovush almashishi mumkin?

6. Faqat talaffuzda tovush almashadiga soʻzlarga misol ayting.
7. Isimoq soʻziga qaysi qoʻshimcha qoʻshilganda tovush almashadi?
8. Sanogʻi soʻzi qanday fonetik oʻzgarishlarga uchragan?
9. Atoqli soʻzi qanday fonetik oʻzgarishlarga uchragan?

Oʻquvchilarni baholash

Darsda faol ishtirok etgan oʻquvchilar baholanadi

Uyga vazifa

93-mashq. Uyga vazifa. Sinfdoshlaringiz bilan sodir boʻladigan qiziqarli voqealarni uch-toʻrt latifa shaklida yozing. Tovush oʻzgarishiga uchraydigan soʻzlarning ostiga chizing

